
TUMAN SHTABI FAOLIYATIDAN: MAHALLALARDA SHAG'ALLASHTIRISH ISHLARI DAVOM ETMOQDA

Avval xabar berganimizdek tuman ichki ishlar bo'limida tuman hokimining birinchi o'rinbosari rahbarligida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha kutilayotgan natijalar hamda qish mavsumini betalofat o'tkazish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirib boruvchi tuman shtabi tashkil etilgan. Shtabda MFYlar xonadonlari kunlik xatlov natijalari muvofiqlashtirilib, tushgan murojaatlar ijobiy hal etib borilmoqda. Tashkil etilgan tezkor ishchi guruhlar tumandagi mahallalarda uyma-uy yurib, odamlarni qiynayotgan muammo va kamchiliklarni o'rganmoqda. O'rganishlar doirasida elektr energiyasi, gaz, toza ichimlik suvi ta'minoti, ko'chalarni ta'mirlash, aholi bandligini ta'minlash, ko'makka muhtoj oilalar, nogironligi bo'lgan shaxslar, yakka-yolg'izlarni ijtimoiy muhofaza qilish bo'yicha alohida dasturlar ishlab chiqilmoqda. Hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy holatini yaxshilash, qurilish-obodonlashtirish ishlarini o'tkazish, aholini turmush sharoitlarini yaxshilash bo'yicha Rishton tumanida bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Olib borilayotgan jarayonlarda ishtirok etayotgan sektor rahbarlari kuz-qish mavsumida aholining kayfiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan muammolarni tezlikda bartaraf qilinishi zarurligini ta'kidlab o'tishmoqda.

Xususan, kecha Xo'ja Ilg'or MFY beshligi va hududda birlashtirilgan xodimlar tomonidan fuqarolarning murojaatlari o'rganildi. Unga ko'ra, mahalladagi Konstitutsiya ko'chasidagi 1 ming 65 metr masofadagi ichki ko'chalari shag'allashtirish lozimligi aniqlandi.

Ayni damda Xo'ja Ilg'or mahallasi ichki ko'chalarida mas'ul idora va tashkilotlar vakillari hamkorligida shag'allashtirish ishlari olib borilmoqda.

- Bir necha yillar davomida ko'chalarimiz xatto shag'allashtirilmagan edi. Bolalarimiz maktab, bog'chaga borgani hamisha qiynalar, qariyalarimiz esa qish mavsumida ko'chaga chiqa olmasdi. Ayniqsa, yomg'irli kunlarda ko'chalarda suvlarning to'planib qolishi odamlarga yurishda katta noqulayliklar tug'dirardi. Mahallamiz ko'chalari shag'allashtirilayotganidan behad xursandmiz. Buning uchun barcha rahbarlarga mingdan-ming rahmat aytamiz, - deydi Xo'ja Ilg'or MFY raisi Bahodirjon Mamajonov.

Rishton tumanida mavjud 71 ta mahalla fuqarolar yig'inlarida aholini qiynab kelayotgan muammolarni bartaraf etish, ularga qulayliklar yaratish borasidagi ishlar davom etmoqda.

2023-01-07 11:14:47